

XURSHID DO' STMUHAMMADNING "JAJMAN" HIKOYASIDA RAMZIYLIK

Salimova Rayxona Burxon qizi

Guliston davlat universiteti Filologiya tillarini o'qitish

(o'zbek tili) yo'nalishi 2-bosqich talabasi

e-mail: salimovarayxona00@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada ayrim majoziy va ramziy obrazlar haqida ma'lumotlar berildi, hikoya tahlillar bilan yoritildi.

Kalit so'zlar: "Jajman" hikoyasi, ramziylik, majoziylik orqali ma'no ifodalash, bozor tasviri, nafs, Avesto, Zardusht.

Abstrakt: In this article, information about some figurative and symbolic images was provided, and the story was analyzed with interpretations.

Key words: The story "Jajman," expressing meaning through symbolism and figurativeness, the depiction of the market, Avesta, Zoroaster.

O'zbek hikoya janri tarqqiyotiga o'z hissasini qo'shib kelayotgan adiblardan biri Xurshid Do'stmuhammaddir. Yozuvchining "Jajman" hikoyasi tahlil talab bo'lib unda bir qadar ramziylik va majoziylik mavjud.

Ramz (arabcha-ishora qilmoq) - voqelikni badiiy aks ettirishning shartli usuli, badiiy shartlilik shakllaridir. Ramz majozdan farq qilib, mazmuni obrazlar qurilishi bilan bog'liq bo'ladi va ko'pincha noliligi bilan ajralib turadi.

Adib o'zi ta'kidlaganidek, "Jajman" asari polifonik xususiyatga ega bo'lib, har kim o'zicha idrok qilishi, o'zicha ma'no kashf etishi mumkin. Asar ekspozitsiyasi bozor tasviri bilan boshlanadi. Bu yerda bozor ramziy ma'noda dunyoga tenglashtirilmoqda. Bozorga tashrif buyuruvchi insonlar esa dunyoga kelib, vaqti soati yetganda uni tark etadigan bashardir.

Asarning bosh qahramoni Zardusht bobodir. Zardusht ismi ham ramziy ma'noda muallif badiiy niyati uchun xizmat qilgan. Ma'lumki, Zardusht - Zardushtiylik dinining asoschisi. Bu dinning muqaddas kitobi "Avesto" da ikki kuch: ezgulik xudosi

(Axuramazda) va yovzlik xudosi (Axriman) o'rtasida mislsiz jang boradi. Azaldan shunday ezgulik va yovuzlik doimiy kurashda. Alaloqibat ezgulik tantana qiladi.

"Jajman" hikoyasida yovuzlik deya nafs balosiga, ezgulik deb insonning nafs ustidan qozonadigan g'alabasiga nisbatan aytilmoqda. Jajman bir qarasa sichqonday, bir qarasa tulkiday tovlanuvchi mavjudot. U majoziy ma'noda nafsga ishora qilmoqda.

Majoz(alligoriya)-ramziy bir ko'rinish bo'lib, voqea-hodisa yoki narsa-buyumning mavhum tushunchasi o'rnida aniq tasvirni ifodalovchi ramziy so'z (obraz)ni qo'llash, ya'ni adabiy asarda o'quvchiga noaniq bo'lgan tushunchani ko'pchilikka ma'lum bo'lgan narsalarga xos belgilar bilan ifodalash usuli. Jajmanning bozor (ya'ni dunyo) ga oralashi esa insonlarni dastlab bezovta qilmaydi. Natijada, bu maxluq hech kim chaqirmasa ham paydo bo'lib, bemalol savdogarlar va xaridorlarning narsalarini paqqos tushiradigan, qo'ynini kovlashtirib pulini oladigan bo'ldi. Uning xuddi kenguruning xaltasidek bir qapchig'i bo'lib unga qancha narsa solsa ham to'ldirib bo'lmaydi. Aynan mana shu baloyi nafsni ancha-munchaga qonmasligiga ishora qiladi. Bozor ahli Jajmanni tutib, ta'zirini berishga bel bog'lashadi. Lekin u har safar tutqich bermay qochar, qo'yilgan qopqonlar-u sepilgan badbo'y dorilar uni zig'ircha bezovta qilmas, uni tutish uchun shaylangan olamonni ham kalaka qilib tutqich bermas edi. Bu vaziyat nafsga qarshi kurashib, uni yengish mashaqqatli ekanligini ko'rsatadi.

"Jajman" so'zining izohini so'rashganida adib: "Muxlislar adabiy uchrashuvlarda, g'urunglarda shu savolni ko'p berishadi, ammo men har gal javobsiz qoldiraman. Bu mening sirim, hikoyaning jozibasi shunda. O'quvchi o'zi o'ylab topsin", - deya javob beradi.

"Jajman" so'zi "jajjiman" so'zidan qisqartirib olingan bo'lishi ehtimoldan yiroq emas. Chunki nafs jajji, hatto ko'z bilan ko'rib bo'lmasa ham ancha-muncha narsa bilan qoniqmaydi. Qo'yib bersang, butun bir boshli "bozorni" yeb quritaman deydi-ya. Qanday qilib bo'lmasin uni xaloyiq tutishadi, shundan keyin kutilmaganda u tilga kiradi va quyidagi so'zlarni aytadi: "Lo...kila!..Lokil...la!" Bu so'zlar aniq bir ma'no ifodalayotgani yo'q, ammo uni teskarisiga o'qisak "Alik ol" bo'ladi. Demak, Jajman: "Salom, men

nafsman. Alik ol, tanishib qo' y" degani anglashiladi. Xuddi shu o' rinda yozuvchi so' z o' yini qilish orqali nafsni tanishtirmoqda.

Bozor ahli ne ranj-u mashaqqatlar bilan Jajmanni tutib, o' ldirganlarida esa avvalgisidan ham ozgina kattaroq(ya' ni ikki qarich) boshqa biri paydo bo' ladi.Bu bilan muallif nafsga qarshi kurashish qiyinliginigina uqtirib qolmay, balki, inson bir nafsini qondirganidan keyin undan-da kattaroq,ko' proq narsalarni xohlay boshlaydi demoqchi.

Xulosa qilib aytish mukinki,adib Zardusht ismi orqali,birinchidan, nafs bilan kurashish qanchalik og' ir bo' lmasin baribir ezgulik g' alaba qozonishini ta' kidlasa,ikkinchidan, nafs balosi bashariyat uchun yangilik emas, uning ildizlari mana shu Zardusht kabi qadimiy demoqchi.

Dastlab ahli bozor Jajmanni to' ydirishga garov bo' g' lab, uning hech to' ymas ekanligini ko' rishib dog' da qoladilar.Har xil tusga kirib buqalamundek tovlanuvchi jonivor bozordagi narsalarni paqqos tushirib, yetmaganidek qapchig'iga ham soladi.Hatto pul o' maradi. Odamlar shundan keyin bu hayvonning qilig' i yaxshilikka olib kelmasligini anglab unga qarshi kurash boshladi.

Inson o' zidagi mana shunday illatlarga qarshi vaqtida taftish boshlamasa bu ko' pchilikning oshini, o' zining esa boshini yeydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. X.Do' stmuhammad. "O' zbekiston adabiyoti va san' ati" 2008-yil, 9-son.
- 2.Xurshid Davron kutubxonasi https://kh_davron.uz/
- 3.O' z.ME.Birinchi jild.Toshkent: 2000- yil.
- 4.Quronov D.Adabiyot nazariyasi asoslari.Noshir,Toshkent:2019.